Maktabgacha ta'limda raqamli texnologiyalar orqali bolalarda mantiqiy va ijodiy rivojlanishni kengaytirish	665
<i>N. O. Saidova, Tojaliyeva Shahrizoda</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining harakat faoliyatini jismoniy vositalari orqali optimallashtirish masalalari	669
<i>Sarimsaqova Bashorat Muhammad qizi</i>	
Talabalarni axborot ta'lim muhitida kasbiy kompetentligini boshqarishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	673
<i>Shoimov Anvar Mamarizayevich, Tojiyeva Iroda Sadatovna, Shodiyeva Guliston Temirovna</i>	

Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda pedagogik metod va o'yinlarning samaradorligi	677
Suyarova Orzigul Sodiq qizi	
Ta'lim jarayonida talabalardagi stress holatlarini bartaraf etishning psixologik xususiyatlari.....	681
Toshpulatov Akmal A'zamjon o'g'li, Dumarov Mashhurbek	
Maktabgacha ta'lim faoliyat markazlarida ta'lim jarayonini davlat dasturi asosida modernizatsiya qilish ...	685
Ubaydullayeva Ra'no Furqat qizi	
The Role of STEAM Technologies in Teaching English.....	689
Umida Raimjanovna Irgasheva	
Talabalar mobilligi jarayonida pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari.....	693
Xabibullayev Alimardon Xidoyatillayevich	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglari o'rtasida metodik kollaboratsiyani boshqarish mexanizmini takomillashtirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar majmuasi va unda qo'llaniladigan metodlar	698
Xamrayeva Gulnoz Israilovna	
Migratsiya sharoitida yoshlar tarbiyasi: pedagogik risklar va ularning kelib chiqish sabablari	704
Xaydarov Sulaymon Amirqulovich	
Отношение к телу и фитнес-практикам как фактор социально-психологического благополучия женщин	708
Дехконбоева Зулайхо Дилшод қизи	
Masofaviy o'qitish kompetensiyasi uchun shart-sharoitlarning samaradorligini tekshirish bo'yicha eksperimental ish.....	712
Musamedova Kamola Abdulxaqovna, Xalikov Abdulxaq Abdulxairovich	
Masofaviy ta'limning oxirgi besh yil davridagi rivojlanish bosqichlarining tahlili.....	719
Musamedova Kamola Abdulxaqovna, Ibragimova Ozoda Abdulxakovna	
Информированность педагогов ДОО о психофизиологических особенностях и здоровье детей в инклюзивном образовательной среде	723
Намазбаева Лола Закировна	

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI TARBIYALANUVCHILARINI MAKTABGA TAYYORLASHDA FIZIOLOGIK RIVOJLANISH VA BIOLOGIK ATAMALARNING QO'LLANILISH XUSUSIYATLARI

Ruziyeva Gulsara Temirqulovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
"Tabiiy fanlar" kafedrası PhD, v.b.dotsent

<https://orcid.org/0009-0009-2634-063X>

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarini maktabga tayyorlash jarayonida ularning fiziologik rivojlanishiga alohida e'tibor qaratish, bola organizmining to'g'ri va mutanosib rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi tavsiyalarni ishlab chiqish masalalari yoritilgan hamda biologik atamalarning qo'llanilish xususiyatlari uzviy bog'liqlikda ilmiy asoslab berilgan. Maktabgacha ta'lim muassasasining asosiy vazifasi har bir bolaning shaxsini yosh davrlariga mos tarzda sifatli rivojlantirish, uni navbatdagi ta'lim bosqichiga puxta tayyorlash va ta'lim muhitida ijobiy pedagogik sharoit yaratishdan iboratdir. Tarbiyalanuvchilarni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash, savodxonligini oshirish va sog'lom voyaga yetkazish ota-onalar hamda pedagoglar oldidagi eng dolzarb va muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bola kelgusida qanday kasb egasi bo'lishidan qat'i nazar, maktabgacha davr uning jismoniy, anatomik va fiziologik jihatdan shakllanishida muhim bosqich sanaladi. Shu bois tarbiyalanuvchilarni tarbiyalashda ularning yosh xususiyatlari, anatomik va fiziologik holati inobatga olinishi zarur. Har bir bolaning ulg'ayish jarayonida muayyan fiziologik o'zgarishlar kuzatiladi. "Fiziologiya" atamasi yunoncha so'z bo'lib, "tabiat" va "bilim" ma'nolarini anglatadi ^[1]. Fiziologiya turli yosh davrlarida organizm a'zolari tizimi va butun organizmda sodir bo'ladigan o'zgarishlarni hamda yoshga xos rivojlanish xususiyatlarini o'rganadi ^[1].

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim muassasasi, maktabga tayyorlash, fiziologik rivojlanish, biologik atamalar, bola organizmi, yosh xususiyatlari, anatomik-fiziologik holat.

Abstract: The article examines the preparation of preschool educational institution pupils for school with particular emphasis on their physiological development and provides recommendations that positively influence the correct and harmonious development of the child's organism. The features of using biological terminology are scientifically substantiated in close connection with physiological development processes. The main task of a preschool educational institution is to ensure the qualitative development of each child's personality in accordance with age characteristics, to prepare them thoroughly for the next stage of education, and to create a positive pedagogical environment. Raising well-developed, physically healthy, and literate children is one of the most urgent and important responsibilities of parents and educators. Regardless of a child's future profession, the preschool period plays a crucial role in anatomical and physiological development. Therefore, special attention should be paid to age-related, anatomical, and physiological characteristics in the upbringing process. During growth, specific physiological changes occur in every child. The term "physiology" originates from Greek words meaning "nature" and "knowledge" ^[1]. Physiology studies age-related characteristics of the development of organ systems and the changes occurring in the organism as a whole at different stages of growth ^[1].

Key words: preschool educational institution, school readiness, physiological development, biological terminology, child's organism, age characteristics, anatomical and physiological development.



Аннотация: В статье освещаются вопросы подготовки воспитанников дошкольных образовательных организаций к школе с акцентом на их физиологическое развитие, а также представлены рекомендации, оказывающие положительное влияние на гармоничное и правильное развитие организма ребенка. Научно обоснованы особенности применения биологических терминов в тесной взаимосвязи с физиологическими процессами развития. Основной задачей дошкольного образовательного учреждения является качественное развитие личности каждого ребенка в соответствии с возрастными особенностями, обеспечение его всесторонней подготовки к следующему этапу обучения и создание благоприятной педагогической среды. Воспитание гармонично развитых, физически здоровых и грамотных детей является одной из наиболее актуальных и ответственных задач родителей и педагогов. Независимо от будущей профессиональной деятельности ребенка, дошкольный период занимает важное место в формировании его анатомического и физиологического развития. В связи с этим в процессе воспитания необходимо учитывать возрастные, анатомические и физиологические особенности детей. В период роста у каждого ребенка наблюдаются определенные физиологические изменения. Термин “физиология” имеет греческое происхождение и означает “природа” и “знание” ^[1]. Физиология изучает возрастные особенности развития органов и систем организма, а также изменения, происходящие в целом организме в различные возрастные периоды ^[1].

Ключевые слова: дошкольное образовательное учреждение, подготовка к школе, физиологическое развитие, биологические термины, организм ребенка, возрастные особенности, анатомо-физиологическое развитие.

KIRISH

Ta'lim-tarbiya jarayoni ustuvor masala bo'lib, tarbiyachi o'z faoliyatida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish bilan birga maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyalanuvchilarning a'zolari-ning anatomik va fiziologik tuzilishi, gigienasi, o'sish va rivojlanish qonuniyatlari hamda yosh xususiyatlarini mukammal bilishi lozim.

Maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyalanuvchilarni tarbiyalash va ta'lim berishda, 6-7 yoshli bolalarni maktabga sifatli tayyorlash bolaning tug'ilishi, o'sishi, rivojlanishi va yosh davrlari bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos yosh xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarni maktabga sifatli tayyorlashda tarbiyachi bolaning yosh xususiyatlarini inobatga olishi zarur.

Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarining maktabga tayyorgarligini aniqlash uchun amalda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin:

- tovushlarni talaffuz qilishdagi nuqsonlar;
- doira kesishni bajarish jarayonini kuzatish;
- so'z ta'siriga adekvat javob hosil bo'lishi;
- uchta topshiriq berish orqali psixologik yetuklikni aniqlash;
- odam rasmini chizish hamda besh burchak shaklda joylashgan nuqtalarni ko'chirish.

Mazkur topshiriqlarni bajara olgan bolalarning sog'ligi va maktabga tayyorgarligi aniqlanib, ular asosiy yoki tayyorlov guruhlariga belgilanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida 6-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlashda har bir bola shaxsiga individual yondashish, uni shaxs sifatida hurmat qilish, bolaning qiziqishi va ehtiyojlariga mos tarzda ta'lim berish, har bir bola shaxsini yosh xususiyatlariga muvofiq sifatli rivojlantirish va uni navbatdagi ta'lim bosqichiga puxta tayyorlashni ta'minlash, shuningdek muassasada ijobiy muhit va zarur sharoitlarni yaratish muhimdir.

Bola hayotining yettinchi yilida undagi harakatlar ko'lamini kengayadi va aniqlashadi; 6-7 yoshli bola o'zini idora qilish va harakatlarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'la boshlaydi. Bu yoshdagi bolada mustaqil faoliyat ko'rsatish va tashabbuskorlik rivojlanadi, qiziquvchanlik yanada ortadi, kattalar fikrini tinglash ishtiyoqi shakllanadi, o'z salomatligini nazorat qila olish ko'nikmalari paydo bo'ladi. Bu davrda bolaning bo'yi 122-128 sm ga yetadi, og'irligi esa 25-28 kg bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarini maktabga tayyorlashda tarbiyachi va ota-ona zimmasiga katta mas'uliyat yuklanadi. Shuni unutmaslik kerakki, maktabgacha yoshdagi bolaning qiziquvchanligi yuqori bo'lsa-da, uning tabiiy imkoniyatlari ma'lum darajada cheklangan bo'ladi; shu sababli bilim berish va bilim olish bolaning imkoniyatlari, qobiliyati hamda yosh xususiyatlariga mos kelishi zarur.

Maktabga tayyorlash jarayonida bolaning ko'proq harakat qilishiga, beriladigan bilimlarning sodda o'yinlar va jismoniy mashqlar orqali amalga oshirilishiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Tarbiyachi bola organizmiga jismoniy mashqlarning qanday ta'sir ko'rsatayotganini muntazam kuzatishi kerak, chunki uzoq vaqt o'tirib yozish va chizish bilan mashg'ul bo'lish ijobiy natija bermasligi mumkin. Bunday holat bolaning fiziologik rivojlanishiga salbiy ta'sir etib, tez charchash, zerikish hamda qad-qomatning noto'g'ri shakllanishiga olib keladi.

Qad-qomatning to'g'ri shakllanishi uchun stol va o'tirgichda o'tirganda bolaning gavdasi tik, yelkalari bir tekisda, beli o'tirgich suyanchig'iga suyanib turishi, oyoqlari tizza bo'g'imidan to'g'ri burchak hosil qilib bukilgan



bo'lishi, ko'krak bilan stol orasidagi masofa 3-5 sm ni tashkil etishi lozim. Bola qad-qomatining shakllanishida, ayniqsa, umurtqa pog'onasining normal rivojlanishi muhim ahamiyatga ega:

- normal holatda bo'yin va bel qismida umurtqa pog'onasi biroz oldinga, ko'krak va dumg'aza qismida esa biroz orqaga egilgan bo'ladi;
- bolaning tik turishi, yurishi va boshini tik tutishi natijasida bu egilishlar asta-sekin hosil bo'ladi.

Qad-qomatning noto'g'ri shakllanishi egilgan, lordoz, kifoz, kekkaygan hamda skoliotik ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin. Qad-qomat buzilishi nafaqat bolaning tashqi ko'rinishini o'zgartiradi, balki ichki a'zolar – o'pka, yurak, jigar, buyrak, oshqozon va ichaklarning rivojlanishi va funksiyalariga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi; bunday bolalar mashg'ulot vaqtida tez charchaydi, yurak urishi tezlashadi va nafas olishi qiyinlashadi. Bolani yoshligidan tekis va biroz qattiqroq, past yostiqli to'shakda yotishga o'rgatish lozim, chunki prujinali karavotlar va baland yostiqlar bola umurtqasining qiyshayishiga sabab bo'lishi mumkin.

6-7 yoshli bolalar uzoq vaqt bir joyda o'tirmasligi yoki tik turmasligi, uzoq masofaga yugurmasligi hamda og'ir buyumlarni ko'tarmasligi kerak. Bolalar uzoq vaqt tik turganda yoki tor poyabzal kiyganda oyoq panjasi gumbazi yassilanib, yassioyoqlik yuzaga keladi; yassioyoqlik natijasida oyoqning tovon, panja va boldir mushaklarida og'riqlar paydo bo'ladi. Bolaning oyoqlari tuzilishiga e'tibor berib, mashg'ulotlarni ochiq havoda 40-50 metr masofaga o'rtacha tezlikda yugurish, qo'l bilan turli harakatlarni o'yinlar orqali bajarish ma'qul, chunki o'yin bolaning diqqat-e'tiborini o'ziga tortuvchi ta'sirchan vositadir. Ayniqsa, mashg'ulotlar erkin harakatlar, rasm chizish, musiqa mos harakatlar va kichik mehnat turlarini bajarishdan iborat bo'lsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mashg'ulotlarning turlari bolalarning xohish-istaklariga mos kelib, yangi bilimlar va ko'nikmalar hosil qilish bilan birgalikdagi sezgirligi, fikrlash qobiliyatlarini oshirish hamda tasavvur yetilishini mustahkamlashga xizmat qilsa, ta'limning keyingi bosqichiga o'tganda bola uchun o'qish quvonchiga aylanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktab ta'limiga tayyorlash jarayonida bolaning o'yin faoliyatini mazmunli va maqsadli tarzda tashkil etish hal qiluvchi o'rin egallaydi. Didaktik o'yinlarni qonun-qoidalar asosida tashkil etish bolaning bilim olishi, tarbiyalanishi va umumiy rivojlanishida muhim jarayon hisoblanadi. Bunda pedagog o'yinni belgilangan tartib-qoidalar asosida bajarishni ta'minlash, tengdoshlar harakatlarini nazorat qilish, natijalarni baholash va rag'batlantirish jarayonlarida muhim rol o'ynaydi.

Ertalabki badantarbiya mashqlarini bajarishga bo'lgan ishtiyoqni shakllantirish, ularni muntazam ravishda ochiq havoda, gilam ustida va yengil kiyimda bajarishni yo'lga qo'yish zarur. Badantarbiya mashg'ulotlarida qomatni to'g'ri shakllantiradigan hamda yassi tovonlikning oldini oladigan mashqlarni kiritish lozim.

Bolalarda jismoniy mashqlardan tashqari madaniy-gigienik ko'nikmalarni (yuvinish, tozalik, kiyinishdagi ozodalik va tartib) shakllantirish zarur. Bola o'z tanasining qismlarini va gigiena qoidalarini o'rganadi. Bolani sog'lom turmush tarziga odatlantirish, ularga odamning ichki a'zolari (yurak, jigar, oshqozon, o'pka) va ularning joylashuvi hamda vazifalari haqida ma'lumotlar berish, masalan, inson o'pka orqali nafas olishi, yurak doimiy ravishda urib turishi, oshqozonda ovqat hazm bo'lishi kabi jarayonlarni tushuntirish, ushbu a'zolarining tanada qayerda joylashganini ko'rsatish va ularning nomlarini aytishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

6-7 yoshli bolani maktabga tayyorlash jarayonida pedagog quyidagi vazifalarni bilishi va ularni tizimli ravishda amalga oshirishi lozim:

- bolalar o'yin faoliyatining qonun-qoidalarini o'zlashtirib olishi;
- bolaning salomatligi va jismoniy rivojlanishi belgilangan talablar darajasida bo'lishi;
- bolada nutqni rivojlantirish va muloqotga kirisha olish qobiliyatini shakllantirish;
- bolaning o'z fikrini erkin ifoda eta olishi hamda fazoviy tasavvur tushunchalariga ega bo'lishi;
- nafosat tarbiyasi doirasida musiqa, ashula, she'riyat, ertak va rivoyatlardan namunalar aytish hamda ularga qiziqish uyg'otish;
- kichik monologlar, dialoglar, fikr almashuv va tez kirishuvchanlikni rivojlantirish;
- bolalar ongida elementar matematik savodxonlikni shakllantirish;
- jonli va jonsiz tabiatga mehr, mehnat qilish tushunchalarini singdirish, o'simlik va hayvonot olamini asrab-avaylash hamda atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatni tarbiyalash;
- boshlang'ich sanitariya, shaxsiy gigiena va sog'lom turmush tarzini shakllantirish, o'z salomatligini saqlay olishga o'rgatish;



- kichikintoy qalbida milliy urf-odatlar, qadriyatlar, an'analar, bayramlar va tarixiy obidalarga hurmat bilan qarash tuyg'usini singdirish;
- davlat ramzlari haqidagi boshlang'ich tushunchalarga ega bo'lishi uchun sharoit yaratish va tarbiyalash.

Maktabgacha davr bolaning o'sishi, rivojlanishi, o'zini namoyon etishga intilishi va o'rganishga bo'lgan ishtiyoqi kuchli bo'lgan muhim bosqich hisoblanadi. Aynan ushbu davrda bolaning insoniy sifatleri va aqliy salohiyatining rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratiladi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va ularni harakatlantiruvchi kuch inson, uning barkamol rivojlanishi, yangicha fikrlashi hamda ijtimoiy xulqi hisoblanadi. Jumladan, ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan vazifalarning barchasi o'sib kelayotgan yosh avlodni jismonan va ma'naviy sog'lom qilib tarbiyalashga qaratilgan. Aslida, "sog'lom bola" tushunchasi jismoniy jihatdan kasalliklardan xoli, ruhiy tomondan esa toza va pok bo'lishni anglatadi. "Bola" esa yangi tug'ilgan, hali ko'krakdan ajratilmagan go'dakni bildiradi.

Hozirgi kunda bolalarni maktabga tayyorlash jarayonini yangi omillarni izlash va tajriba-sinovlardan o'tkazish asosida amalga oshirish zarurati mavjud. Maktabga tayyorlashda bolalarning ruhiy tayyorgarligi, jismonan sog'lom bo'lishi, muloqotga kira olishi, so'z boyligi, boshlang'ich elementar matematik tushunchalarga ega bo'lishi, yozishga dastlabki tayyorgarligi hamda ayrim so'zlar va tushunchalar to'g'risida tasavvurlarga ega bo'lishi muhim rol o'ynaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Hozirgi vaqtda bolaning moslashuv (ko'nikish) imkoniyatlarini oshirish, bola shaxsining shakllanishi uchun nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Bola tug'ma yurish-turish shakllariga ega emas va ijtimoiy muhitda rivojlanar ekan, uch asosiy komponentni – hudud, narsa-predmet va vaqt, kundalik tartib hamda muomala shakllarini – bosqichma-bosqich o'zlashtiradi. Bola tug'ilishidanoq uning faolligi "bola-kattalar" munosabatlari doirasida tartibga solinadi. Maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyalanuvchilarni tayyorlash jarayonida biologik atamalardan keng foydalaniladi.

Tarbiya jarayonida eng ko'p qo'llaniladigan biologik atamalarga quyidagilar kiradi:

- tug'ilish, o'sish, rivojlanish;
- a'zolar – bosh, gavda suyaklari, qo'l-oyoq suyaklari, muskullar;
- yosh davrlari – go'daklik, bolalik, ilk yosh, kichik yosh, o'rta yosh, katta yosh, maktabga tayyorlov yoshi;
- shuningdek, adaptatsiya, akseleratsiya, gigiyena, sezgi analizatorlari, sog'lomlik, asab tizimi, tana, miya, qad-qomat, yassi oyoqlik kabi tushunchalar.

Har bir atamaning o'ziga xos qo'llanilish xususiyatlari bo'lib, biologik atamalar bola tug'ilishidan boshlab qo'llanila boshlaydi.

Masalan, bolaning tug'ilishi bilan bog'liq atamalarga ko'ra, yangi tug'ilgan qiz bolaning o'rtacha vazni 3,4 kg, o'g'il bolaniki esa 3,5 kg bo'ladi. Bolaning rivojlanishi bilan bog'liq atamalarga asosan, bolaning vazni tug'ilganidan keyingi birinchi oyida 600 g, ikkinchi oyida esa 800 g ortadi.

Bola bir oylik bo'lguncha chaqaloq hisoblanadi. Chaqaloqlik davrida bolaning organizmi nihoyatda nozik bo'lib, turli kasalliklarga tez chalinadi. Emizikli davr bola tug'ilgan kundan boshlab 2 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bolaning o'sishi bilan bog'liq atamalarga ko'ra, yangi tug'ilgan chaqaloqning bo'yi o'rtacha 50 sm bo'ladi. 1 yoshgacha har oyda taxminan 2 smdan o'sib boradi va 1-yosh oxirida bo'yi 74–75 smga yetadi. Shundan keyin har yili o'sish 5–7 smni tashkil etadi. Bolalikning ayrim davrlarida, xususan, 3 yoshgacha hamda 5–7 yosh oralig'ida bo'yiga o'sish jadallashadi. Bola o'sa borishi bilan uning sezgi organlari va nerv tizimi ham bosqichma-bosqich rivojlanadi.

Bir oylik bola o'yinchoq qimirlagan tomonga ko'z soqqasini harakatlantiradi.

Uch oylik bola tovush chiqqan tomonga qaray boshlaydi, kuladi, qo'llari bilan o'yinchoqqa talpinadi va boshini tik tuta boshlaydi.

Besh oylik bola o'ziga yaqinlarni taniy boshlaydi, kuladi va qiyqiradi. Yetti oylikda bemalol o'tiradi, sakkiz oylikda o'rnidan tura boshlaydi.

O'n bir oylikda oddiy so'zlarni ayta boshlaydi, qo'lidan yetaklansa yura boshlaydi.

O'n ikki oylikda esa mustaqil yura boshlaydi va 10–12 ta so'zni ayta oladi. Bolaning suyak tizimi normal rivojlanganligini sut tishlarining chiqishi bilan aniqlash mumkin. Sut tishlari odatda 6–7 oylikda chiqa boshlaydi va 1 yoshga to'lganda bolaning 8 ta sut tishi bo'lishi kerak. Maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyalanuvchilarni tayyorlash jarayonida bolada ko'nikmalar hosil qilishda biologik atamalardan, ayniqsa, "adaptatsiya", ya'ni moslashish tushunchasidan keng foydalaniladi.



Bolalarning bog'cha yoshi 3 yoshdan 6–7 yoshgacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Bola maktabgacha ta'lim muassasasiga qatnay boshlaganidan so'ng taxminan 1 oy o'tgach, o'zini me'yoriy holatda tuta boshlaydi va muassasa sharoitiga asta-sekin moslashadi.

Adaptatsiya quyidagi turlarga bo'linadi:

- yengil adaptatsiya – bunda bolaning yurish-turishi 10–15 kun ichida me'yoriy holatga qaytadi;
- o'rta adaptatsiya – bolaning yurish-turishi yoki emotsional holatidagi o'zgarishlar 15–30 kun ichida me'yoriy holatga qaytadi, agar bolada ozish kuzatilsa, keyinchalik o'z vaznini tiklab oladi;
- og'ir adaptatsiya – bunda bolalarda tez-tez qayta kasallanish (bronxit, pnevmoniya) holatlari kuzatiladi va bu jarayon 1 oydan ortiq davom etadi.

Bunday holatlarning oldini olish uchun oila va maktabgacha ta'lim muassasasida bolaga bir xil yondashuvni shakllantirish, oila bilan uzviy aloqani yo'lga qo'yish, bolaning muassasaga qatnay boshlagan dastlabki 3–4 kunida onasining ishtirok etishi hamda bolaning ruhiy-emotsional holatini qo'llab-quvvatlash muhim hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabgacha davr bolaning o'sishi, rivojlanishi, o'zini namoyon etishga intilishi hamda o'rganish va bilishga bo'lgan ishtiyoqi kuchli bo'lgan muhim bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda bolaning insoniy sifatleri va aqliy salohiyati rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratiladi. Maktabgacha yoshdagi bola bilan ta'lim-tarbiya ishlari qanchalik erta boshlansa, uning samarasi shunchalik barvaqt namoyon bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyalanuvchilarni jismonan sog'lom tarbiyalash jarayonida biologik atamalardan – qo'l va oyoq, bilak, tirsak, tizza, bosh, yuz, bola miyasi, bolaning sezgi analizatorlari kabi tushunchalardan foydalanish bolaning tafakkurini rivojlantirishga katta yordam beradi. Buning uchun bolaning yirik va mayda qo'l motorikasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega ^[2]. Chunki bolaning qo'l va barmoqlarida nerv tolalari joylashgan bo'lib, barmoqlar orqali u atrofdagi barcha narsalarni sezadi.

Bolaning mayda motorikasi uning nutqi va mantiqiy tafakkurining shakllanishiga bevosita ta'sir etadi. Agar bolaning qo'l, oyoq va bilak motorikasi to'g'ri rivojlantirilsa, miya faoliyati ham shunchalik samarali rivojlanadi. Qo'l-barmoqchalar motorikasining rivojlanishi tafakkur, harakat va xotira jarayonlarining faollashuviga, shuningdek, diqqatning oshishiga olib keladi.

Yozish ko'nikmasining shakllanishi va nutqning ravonlashuvi ham aynan ushbu jarayonlar bilan chambarchas bog'liqdir. Maktabgacha ta'lim muassasasida olib boriladigan mashg'ulotlarning asosiy vazifalaridan biri bolaning miyasida buyum va hodisalar haqidagi tasavvurlarni shakllantirishdan iborat. Masalan, rasm chizdirish yoki turli kubiklardan biror buyum yasash orqali bolaning tafakkuri rivojlanadi.

Maktabgacha tarbiya yoshida bolaning analizatorlari va idrok etish jarayoni yanada takomillashadi. Biologik atamalarni bolaning yoshiga muvofiq ravishda qo'llash zarur bo'lib, bunda uning ko'rish, eshitish, hid bilish va ta'm bilish analizatorlarining rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Kundalik faoliyat jarayonida sayrni rejalashtirish va sayr vaqtida tabiat bilan bevosita munosabatda bo'lish bolalarga katta zavq bag'ishlaydi.

Surxondaryo viloyati Termiz shahar 19-Maktabgacha ta'lim muassasasida 6-7 yoshli tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktabga tayyorlash jarayonida amaliyot o'tayotgan talabalar bilan birgalikda olib borilgan mashg'ulot turlarini kuzatdik.

O'tkazilgan mashg'ulotlardan "Qush uchdi", "Oq terakmi ko'k terak", "Ko'z bog'lash", "Meni top", "Quyunchani parvarishla" kabi o'yinlar bolalarda jismoniy harakatlarni rivojlantirishga, yo'nalishni aniqlashga va topqirlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, nutq o'stirish, nutq grammatikasini shakllantirish, elementar matematik ko'nikmalar va bilimlarni rivojlantirish, 0-9 gacha bo'lgan raqamlarni yozib o'rgatish, mantiqiy fikrlash, rasm chizish, savodxonlikka o'rgatish, applikatsiya, musiqa mashg'ulotlari, plastilin va loy bilan ishlash, jonli tabiat bilan tanishtirish hamda atrof-muhitni muhofaza qilishga oid mashg'ulotlarning hafta kunlariga taqsimlangan holda olib borilishi va tarbiyalanuvchilarga hafta davomida izchil mashg'ulotlar o'tilishi jarayoni kuzatildi.

Mashg'ulotlar jarayonida tarbiyachilar bolalarga ertaklar o'qib berish orqali ularning tasavvur qilish qobiliyatini, mimika yordamida javob berish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Jumladan, "Zumrad va Qimmat", "Egrivoy va To'g'rivoy", "Tulki bilan qarg'a", "Bo'g'irsoq" kabi ertaklarni tinglash natijasida bolalarda ijobiy va salbiy xislatlarni ajrata olish, munosabat bildirish hamda hayotiy voqealar bilan bog'lay olish ko'nikmalari shakllanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kun tarbiyachisi innovatsiyaning tub mohiyatini anglagan holda, ta'lim-tarbiya jarayonining bolalar ongiga qay darajada ta'sir etishini chuqur tahlil qilishi hamda interfaol usul va uslublardan mohirona foydalangan holda ta'lim-tarbiya sifatini oshirishga erishmogi lozimdir. Ta'lim-tarbiya jarayonida



qo'llaniladigan biologik atamalarning ham o'ziga xos yutuqli xususiyatlari mavjudligini inobatga olib, mazkur jarayonni maktabgacha ta'lim muassasasida ilmiy asosda yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyalanuvchilarni tayyorlash jarayonida tarbiyachi biologik atamalarni qo'llash bilan bir qatorda boladagi fiziologik o'zgarishlarni ham kuzatadi, bolaning sog'lom o'sishi va yetuk inson bo'lib yetishishiga to'sqinlik qilayotgan tashqi omillarning oldini oladi. Bolaning yosh xususiyatlari va qo'llanilayotgan biologik atamalarning o'zaro uzviy bog'liqligi tarbiyachi zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilari tarbiyalanuvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini innovatsion texnologiyalar va interfaol usullarni o'quv mashg'ulotlari hamda samarali o'yinlarda qo'llash orqali oshirib, bolalarning faol va mantiqiy fikrlashini, nutq madaniyatini, diqqatini, xotirasi va aqliy qobiliyatlarining izchil rivojlanishini ta'minlaydi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ushbu usulda tarbiyalangan bolalar maktabning boshlang'ich ta'lim bosqichiga tayyor holda ta'lim muassasasiga qadam qo'yadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aripova S.X., Shaxmurova G.A. Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi.
2. Qayumova N. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent, 2013.
3. Ilk qadam davlat dasturi. – Toshkent, 2018. – 5–9-b.
4. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilari uchun o'quv modullar. 3-modul: Maktabgacha ta'lim muassasasi va oila hamkorligi. – Toshkent, 2012.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.